
**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISH
METODLARINING AMALIY AHAMIYATI**

Taylanova Shoxida Zayniyevna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori

Olimova Gulrabo Amin qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning ahamiyati va turli yosh guruhlarida foydalanish mumkin bo'lgan metodlarning tasnifi yoritib berilgan. Turli metodlardan foydalanish mashg'ulot jarayonini qiziqarli qiladi va bolalarning eslab qolish ko'nikmalarini yaxshilaydi.

Kalit so'zlar: *O'yin, multimedia vositalari, interaktiv o'yinlar, amaliy metod hikoya qilish, qo'shiq*

Abstract: *In this article outlines impact learning English for preschool children and classification of teaching methods for English language by different age groups. There are several key benefits of learning English for preschool children. Using different methods helps to be interesting the lesson and improves memory of children*

Key words: *game, multimedia tools, interactive games, practical methods, storytelling, song.*

Maktabgacha ta'lif sifatli ta'lif tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanib bugungi kunda yurtimizda uning rivojlanishi yo'lida bir qancha samarali chora-tadbirlar olib borilmoqda. Bu esa davlatni ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir. So'nggi yillarda yurtimizda yoshlarga ta'lif berish jarayonida xorijiy tillarni o'rgatishning, jumladan, ingliz tilini o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Bundan maktabgacha ta'lif tizimi ham mustasno emas. Shuning uchun maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatishning ahamiyati ortib bormoqda. Ingliz tilini erta yoshda o'rgatish, bolalar uchun tilni o'rganishni osonlashtiradi va kelajakda turli xorijiy tillarni o'rganishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Erta yoshda o'rganilgan xorijiy til kelajak poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida har bir bolani harakatini rag'batlantirib borish talab etiladi. Nutqni bir necha bor takrorlash, mashg'ulotlar jarayonida interfaol metodlar, interaktiv o'yin va tarqatmalardan foydalanish orqali bolalarni tez eslab qolishini ta'minlash mumkin. Bu davrda bolalarda tilni o'rganishga

ko'proq qiziqish paydo bo'ladi. Chunki bu davrda bolalarning iqtidori, ko'nikmalari kengroq bo'ladi.

Pedagogdan ingliz tilini o'rgatish jarayonida mashg'ulotlar davomida bir qancha zamonaviy texnologiyalardan, multimedia vositalaridan, interaktiv o'yinlardan foydalanishi talab etiladi. Bu esa o'z-o'zidan bolalarni mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmay balki eslab qolish qobiliyatini va ko'nikmalarini yaxshilaydi. Biz mакtabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili o'rgatish mashg'ulotlari jarayonida quyidagi keltirilgan metodlardan foydalanishimiz mumkin.

Audiovizual metod – bu metod bolalarni mashg'ulotlarga bo'lagan qiziqishini orttiribgina qolmay, balki listening ya'ni tinglab tushunishiga yordam beradi. Masalan, "cat or dog" mushuk yoki it so'zlarini audio orqali tinglasa ham eshitish, ham to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasi yaxshilanadi. Multfilmlar, video darslar, audio materiallar orqali o'rganish va vizual materiallar bolaning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi.

O'yin texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ingliz tilini o'rgatuvchi vosita emas, balki bolalarda "caring and sharing", ya'ni g'amxo'rlik, jamoada ahil bo'lib ishslash, o'zaro do'stlik, o'rtoqlik, bir-birga hurmat kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. "Simon says", "Memory game", "Flashcards" kabi o'yinlar yordamida so'z boyligi shakllanadi. O'yinlar bolaning faol ishtirokini ta'minlab, stressiz o'rganishga yordam beradi.

Qo'shiqlar va she'rlar tinglash, ayniqsa, muhim metodlardan biri bo'lib, qisqa va sodda qo'shiqlar orqali yangi so'zlar va grammatik shakllar mustahkamlanadi. Bolalarning eslab qolish va talaffuz ko'nikmalari rivojlanadi.

Tabiiy yondashuv (Natural Approach) bu metodda tilni bola o'z atrof-muhitida tabiiy ravishda o'zlashtirishiga imkon beriladi. Hech qanday majburlashsiz, bosqichma-bosqich, ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan metod turlaridan biri hisoblanadi.

Storytelling method (Hikoya aytish usuli) qiziqrarli metod turlaridan biri bo'lib, bu metod bolalarga ingliz tilidagi qisqa, sodda va tushunarli ertaklar yoki hikoyalar aytish orqali til o'rgatishni nazarda tutadi. Hikoya orqali so'z boyligi, jumla tuzilishi, grammatik ifodalar o'rgatiladi. Bola hayotida muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bolaning eshitish ko'nikmasi rivojlanadi, so'zlarni kontekstda tushunishga odatlanadi. tarbiya va madaniyat elementlari bilan birlgilikda til o'rganish ko'nikmalari singdiriladi. "The Very Hungry Caterpillars, brown bear, brown bear, what do you see?" I see the three bears" kabi jumlalarni ifodali o'qib berganimizda bolada o'z-o'zidan mashg'ulot jarayonida talaffuz va tushunish ko'nikmasi shakllanib boradi. Bu metod, ayniqsa, katta yosh guruhlari uchun foydali bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarga Montessori metodikasi elementlari orqali ingliz tili o'qitishning amaliy ahamiyati juda katta. Montessori metodikasi mustaqillik, harakat orqali o'rghanish va tabiiy rivojlanishga asoslangan. Ingliz tilini o'rgatishda Montessori materiallari, kartochkalar, sensor vositalardan foydalaniladi. Bu metoddha bolalar kichik guruhlarda yoki individual tarzda kichik loyihalarni bajarishadi. Masalan, turli xildagi inglizcha hayvonlar albomi tuzishadi mevalar plakati tayyorlashadi. Har bir loyiha davomida yangi so'zlar, iboralar va muloqot shakllari o'rghaniladi. Bolaning tafakkuri o'sib dunyoqarashi kengayadi. Hayotida tez-tez uchraydigan, Bu nima U nima qiladi kabi savollarga javob topa boshlaydi. Bola o'z tezligida o'rghanadi. Harakat bilan bog'liq holda o'rghanish til o'rghanish jarayonini mustahkamlaydi. Kichik yoshdagi bolalar uchun samarali hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish nafaqat ularning lingvistik qobiliyatini, balki umumiy tafakkurini, ijtimoiy faolligini, eslab qolish va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Aynan 3-6 yosh bolalarga chet tillarini o'rgatish eng qulay davr hisoblanadi. Tilni o'rgatish jarayonida zamonaviy, interaktiv va bola psixologiyasiga mos metodlardan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirish mumkin. Ingliz tilini erta yoshdan boshlab o'qitishning bir qancha foydali tomonlari bor, jumladan, bolalarning kognitiv va lingvistik rivojlanishini tezlashtiradi, kelajakda chet tillarini chuqurroq o'zlashtirishga zamin yaratadi, yordam betradi, ularni global muloqotga tayyorlaydi.

Maktabgacha yoshda ingliz tilini o'rgatish nafaqat til o'rghanish jarayoni, balki bolaning har tomonlama intellektual, psixologik va ijtimoiy rivoji uchun ham foydali hisoblanadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tarbiyachilardan quyidagilar talab etiladi: pedagoglar maktabgacha ta'lif dasturlariga ingliz tili darslarini to'g'ri metodika asosida integratsiya etishlari zarur. Mashg'ulotlar interaktiv, vizual, eshitish usullarni o'z ichiga olishi lozim. Til o'rghanish jarayoni bolaning o'yin faoliyati bilan uyg'un bo'lishi kerak. Mashg'ulotlar jarayonida bolaning yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olinishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gulyaeva, N.V. (2014). Pedagogik texnologiyalar va metodlar: Maktabgacha ta'limda tilni o'rgatishning innovatsion usullari. Tashkent: O'zbekiston Ta'lif Akademiyasi.
2. Sultanova, A. (2021). Maktabgacha ta'lif muassasalarida ingliz tilini o'rgatish metodikalari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lif vazirligi.

3. Komilov, R. R. (2018). THE AESTHETEC AND MORAL SIDES OF THE FAMILY AND WEDDING CEREMONIES. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 10-14).
4. Komilov, R. R. (2017). THE AESTHETIC SIGNIFICANCE OF THE UZBEK NATION'S WEDDING CEREMONIES EVOLUTION. In *PRACTICE OF COMMUNICATIVE BEHAVIOR IN SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCHES* (pp. 47-50).
5. Komilov, R. R. (2017). AESTHETIC COMPONENT OF WEDDING CEREMONIES OF THE UZBEK PEOPLE. *Theoretical & Applied Science*, (4), 87-89.
6. Комилов, Р. Р. (2020). ЎЗБЕК ХАЛҚИ НИКОҲ МУНОСАБАТЛАРИ ГЕНЕЗИСИНИНГ АХЛОҚИЙ-ЭСТЕТИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Интернаука*, 15(144 часть 2), 95.
7. Rabiyevich, Komilov Ro'zi. "MODERN INTERPRETATIONS OF UZBEK MORAL NORMS AND AESTHETIC IDEALS IN THE CONTEXT OF THE INSTITUTION OF MARRIAGE." The Conference Hub. 2025.